O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

# “TABIIY GAZ NAZORATI VA HISOBINING AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMINI JORIY ETISH” LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHGA DOIR QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi “Tabiiy gaz va elektr energiyasini sotish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6010-son Farmonining ijrosini ta’minlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish orqali tabiiy gazni hisobga olish tizimini takomillashtirish, yo‘qotishlarni bartaraf etish, shuningdek iste’mol qilingan tabiiy gaz uchun to‘lovlarning o‘z vaqtida va to‘liq undirilishini ta’minlash maqsadida:

1. “Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish” loyihasini (keyingi o‘rinlarda — Loyiha) amalga oshirish doirasida “Hududgazta’minot” AJ tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilar orasida belgilangan tartibda o‘tkazilgan tender natijalariga muvofiq “Texnopark” MChJ bilan elektron gaz hisoblagichlari va zarur bo‘lgan uskunalarni yetkazib berish to‘g‘risida shartnoma tuzilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Loyihani amalga oshirish:

a) quyidagi asosiy yo‘nalishlar asosida jadallashtirilsin:

tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini (keyingi o‘rinlarda — Tizim) “ishlab chiqarish — gaz taqsimlash stansiyasi — tuman (shahar) chegarasi — yirik uchastkalar kirish qismi — iste’molchi” prinsipi asosida butun tarmoq bo‘yicha joriy qilish;

hisoblagichlarni birinchi navbatda aholining tabiiy gaz iste’moli va qarzdorlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarga o‘rnatish, shuningdek yirik iste’molchilar va tadbirkorlik subyektlarini ularning hisobidan Tizimga ulash;

aholi yashash punktlarida barcha iste’molchilarning (maishiy, sanoat va budjet) hisoblagichlarini hamda yirik uchastkalar kirish qismidagi hisoblagichlarni bir vaqtning o‘zida o‘rnatish va Tizimga ulash hamda tarmoqdagi yo‘qotishlarni bartaraf etish bo‘yicha ishlarni tashkillashtirish;

hisoblagichlarni o‘rnatish va Tizim imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish orqali joylardagi barcha xodimlarning ko‘nikma va malakasini oshirish;

b) quyidagi tartibda tashkil etilsin:

“Hududgazta’minot” AJ mablag‘lari evaziga 2020-yil 1-oktabrga qadar Qibray, Zangiota va Toshkent tumanlarida Tizimni o‘rnatish;

Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan ajratiladigan kredit mablag‘lari evaziga 2021-yil 1-fevralga qadar O‘rtachirchiq, Chinoz, Yuqorichirchiq, Yangiyo‘l va Karmana tumanlari hamda Toshkent, Andijon, Buxoro, Guliston, Jizzax, Namangan, Nukus, Samarqand, Termiz, Urganch, Qarshi, Kattaqo‘rg‘on, Qo‘qon, Marg‘ilon shaharlarida va boshqa qarzdorlik darajasi baland bo‘lgan hududlarda Tizimni o‘rnatish;

2021-yil 1-avgustga qadar respublikaning boshqa hududlarida iste’molchilarga zamonaviy hisoblagichlarni o‘rnatib, Tizimni to‘liq joriy etish;

ikki oy muddatda yirik iste’molchilar, avtomobillarga gaz quyish shoxobchalari va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilarini, 2020-yil yakuniga qadar qolgan tadbirkorlik subyektlarini ularning o‘z mablag‘lari hisobidan hamda 2021-yil 1-mayga qadar ijtimoiy soha obyektlarini Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan Tizimga ulanishini ta’minlash.

3. Loyihani moliyalashtirish va 2021-yil 1-avgustga qadar amalga oshirish uchun:

a) Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 1 yillik imtiyozli davrni o‘z ichiga olgan holda 4 yil muddatda qaytarish sharti bilan, 6 oylik LIBOR plyus 3 foiz yillik stavkada, imtiyozli davrda asosiy qarz bo‘yicha hisoblangan foizlar kapitalizatsiya qilinishi hisobga olinib, 150 million AQSh dollari miqdoridagi krediti jalb qilinsin;

b) quyidagilar jalb qilinishi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning 27,5 million AQSh dollari ekvivalenti miqdoridagi krediti;

elektron gaz hisoblagichlarini yig‘ish uchun zarur bo‘lgan ehtiyot qismlarini Italiyadan xarid qilishga yo‘naltiriladigan Italiyaning “SACE” davlat eksport-kredit agentligining sug‘urta qoplamasi ostida xorijiy tijorat banklari krediti;

Loyihaning mahalliy xarajatlarini qoplash uchun birinchi o‘rinda respublika jamg‘armalari va mahalliy tijorat banklarining mablag‘lari va zaruratga ko‘ra xorijiy moliyaviy tashkilotlar qarz mablag‘lari.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Moliya vazirligi, Energetika vazirligi va “O‘zsanoatqurilishbank” ATB bilan birgalikda joriy yil yakuniga qadar Italiyaning “SACE” davlat eksport-kredit agentligi va xorijiy moliyaviy tashkilotlar bilan muzokaralar yakunlanishini hamda zarur miqdordagi mablag‘lar jalb qilinishini ta’minlasin.

Moliya vaziriga “Hududgazta’minot” AJning Loyiha doirasida ta’minot bo‘yicha moliya tashkilotlari, jamg‘armalar va banklar oldidagi majburiyatlari yuzasidan tegishli kredit shartnomalarining talablari asosida O‘zbekiston Respublikasining davlat kafolatlarini berish vakolati taqdim etilsin.

4. Quyidagilar:

Loyiha doirasida elektron gaz hisoblagichlarini yetkazib berish va o‘rnatish grafiklari 1 va 2-ilovalarga muvofiq;

tabiiy gaz iste’moli va qarzdorlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda Tizimni joriy qilish grafigi 3-ilovaga muvofiq;

tabiiy gaz iste’moli va qarzdorlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarning yirik uchastkalari kirish qismiga elektron gaz hisoblagichlarini 2020-yilda o‘rnatish grafigi 4-ilovaga muvofiq;

tabiiy gaz ulgurji iste’molchilarining Loyiha ma’lumotlar bazasiga ulanish grafigi5-ilovaga muvofiq;

tabiiy gaz hisoblagichlarini o‘rnatish hamda Tizim imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha 2020-yil oktyabr oyida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar grafigi 6-ilovaga muvofiq;

Tizimni joriy etishni tashkillashtirish bo‘yicha ishchi guruhining namunaviy tarkibi 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tizimni joriy etishni tashkillashtirish bo‘yicha ishchi guruhlari:

bir hafta muddatda hisoblagichlarni o‘rnatish va Tizimga ulash ishlarini tashkillashtirishga mahalla raislari va nozirlarini jalb qilish hamda tizimli ravishda aholi o‘rtasida keng tushuntirish ishlari olib borishni tashkil qilsin;

hisoblagichlar o‘rnatilgan xonadonlarda ishlatilgan tabiiy gaz uchun to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish va yuzaga kelgan qarzdorliklarni undirish ishlarini tizimli tashkil qilsin;

hududda Tizim imkoniyatlaridan samarali foydalanish, o‘rnatilgan hisoblagichlarga servis xizmatlari ko‘rsatish ishlarini tashkil qilsin;

Tizimni joriy etish bo‘yicha kunlik nazorat o‘rnatsin;

amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida mas’ul tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini har haftada tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarida hamda har oyda viloyat darajasida eshitishni tashkillashtirsin.

6. Tizim joriy etilishini nazorat qilish, natijadorligini o‘rganish va tahlil qilish komissiyasi 8-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil etilsin.

Quyidagilar mazkur komissiyaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

Tizim joriy etilishi yuzasidan nazorat o‘rnatish, aniqlangan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish;

Tizimni joriy etishni tashkillashtirish bo‘yicha ishchi guruhlarining ishlari natijadorligini, debitor qarzdorlikni kamaytirish va noqonuniy ulanishlarga chek qo‘yish samaradorligini baholash, ushbu yo‘nalishlarda mas’ul rahbarlarning lavozimga loyiqligi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.

7. Vazirlar Mahkamasi Hisob palatasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Energetika vazirligi bilan birgalikda 2020-yil 1-oktabrdan boshlab ushbu

qarorga 3-ilovada nazarda tutilgan hududlarda aholiga sotilgan tabiiy gaz boʻyicha qoʻshimcha tushumlarning bir qismini “Hududgazta’minot” AJning har bir hudud kesimida maxsus hisob raqamlarida jamgʻarish hamda mazkur mablagʻlar hisobidan Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasidan jalb qilingan kredit mablagʻlarini qaytarish tartibini joriy qilsin.

8. Hisob palatasi tuzilmasida xodimlarning umumiy cheklangan soni va mehnatga haq toʻlash fondi doirasida 5 nafar shtat birligidan iborat Elektr energiyasi va tabiiy gazni hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarining joriy etilishini hamda hisob-kitoblar holatini monitoring qilish shoʻbasi tashkil etilsin.

Hisob palatasiga quyidagi qoʻshimcha vazifalar yuklatilsin:

ta’minotchi korxonalarning taqsimlash tarmoqlarida elektr energiyasi va tabiiy gaz yoʻqotishlarining oʻzgarishini tahlil qilish;

elektr energiyasi va tabiiy gazni hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish holati, elektr energiyasi va tabiiy gaz iste’moli, oʻzaro hisob-kitoblar va mavjud debitor-kreditor qarzdorliklarining tahlili va monitoringini olib borish, ushbu yoʻnalishlarda tegishli choralar koʻrib borish;

maxsus hisob raqamlarga pul tushumlari, ularning maqsadli sarflanishi hamda Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasining kredit mablagʻlari toʻliq va oʻz vaqtida qaytarilishi ustidan tizimli nazorat oʻrnatish.

9. “Hududgazta’minot” AJ:

2021-yil 1-yanvardan boshlab tabiiy gaz hisobini toʻliq yoʻlga qoʻyish, toʻlovlarni oʻz vaqtida va toʻliq undirishni ta’minlash, Tizim orqali aniqlangan xatolarni tezkorlik bilan joyiga chiqib, oʻrganish va bartaraf qilish ishlarini tizimli tashkillashtirishni;

Loyiha doirasida ajratiladigan mablagʻlardan maqsadli va samarali foydalanishni hamda belgilangan tadbirlarni oʻz vaqtida va sifatli amalga oshirishni;

tabiiy gaz hisoblagichlarini oʻrnatish va Tizim imkoniyatlaridan samarali foydalanish boʻyicha mazkur qarorga 6-ilovadagi grafik asosida amaliy mashgʻulotlar oʻtkazilishini tashkil etib, joylardagi barcha xodimlarning koʻnikma va malakasini oshirishni;

har bir tuman va shaharda hisoblagich oʻrnatish guruhlarini shakllantirish, ehtiyojga koʻra, tumanlararo mobil oʻrnatish guruhlarini tashkillashtirib, grafik asosida hududlarga jalb qilishni yoʻlga qoʻyishni;

hududiy gaz ta’minoti tashkilotlari tomonidan Loyiha doirasida tabiiy gaz hisoblagichlarining iste’molchilarga oʻrnatilishida belgilangan tartibga qat’iy rioya etilishini va iste’molchilar huquqlari buzilishining oldini olishni;

mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan tuzilgan shartnomalar doirasida belgilangan toʻlovlarni oʻz vaqtida amalga oshirishni;

mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda Loyihaning texnik-iqtisodiy asoslanishining ekspertizasini yakunlab, 2020-yil 1-dekabrga qadar tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritishni;

2021-yil 1-iyunga qadar Tizim bilan muvofiqlikda ishlovchi zamonaviy billing tizimi yaratilishini;

“Oʻzeltexsanoat” uyushmasi bilan birgalikda tuman va shaharlar kesimida elektron gaz hisoblagichlari oʻz vaqtida yetkazib berilishini, shuningdek, har bir hududda hisoblagich va boshqa uskunalarni ta’mirlash va ularga servis xizmatini koʻrsatish shoxobchalari tashkil qilinishini ta’minlasin.

10. Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda iste’molchilarning “Hududgazta’minot” AJ oldidagi iste’mol qilingan tabiiy gaz uchun qarzdorliklarini undirish grafigini ishlab chiqib, uni amalga oshirish choralarini koʻrib borsin.

11. Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi tomonidan Loyihani moliyalashtirish uchun ajratiladigan kreditni soʻndirish hamda ushbu kredit boʻyicha foiz va komissiyalarni toʻlashning prognoz jadvali 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. Energetika vazirligi Loyiha doirasida:

“Hududgazta’minot” AJga ajratiladigan qarz mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

tabiiy gaz hisobini yuritish;

aholiga yetkazib berilayotgan tabiiy gaz yo‘qotishlarini bartaraf etish bo‘yicha rejalashtirilgan natijadorlikni ta’minlash;

to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq miqdorlarda undirilishini ta’minlash ustidan qat’iy nazorat o‘rnatsin.

13. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Idoralararo tarif komissiyasi ikki hafta muddatda:

“Hududgazta’minot” AJning Loyiha bo‘yicha majburiyatlarini hisobga olgan holda tabiiy gazni sotib olish narxlarini va tabiiy gazni sotishdan tushgan mablag‘larni taqsimlash tartibini qayta ko‘rib chiqib, tasdiqlasin;

respublikadagi issiqlik ta’minoti korxonalarining pul mablag‘lari taqsimoti tartibini “Hududgazta’minot” AJ oldidagi yetkazib berilgan tabiiy gaz uchun mavjud qarzdorlikni so‘ndirishni hisobga olgan holda ishlab chiqib, tasdiqlasin.

14. “Hududgazta’minot” AJga Loyiha amalga oshirilishida, istisno tariqasida, uning texnik-iqtisodiy asoslanishi tasdiqlanguniga qadar Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hamda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB bilan birgalikda o‘rnatilgan tartibda ekspertizadan o‘tgan import shartnomalari, shuningdek, mahalliy pudratchi va ta’minotchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha moliyalashtirishga ruxsat berilsin.

15. Belgilab qo‘yilsinki:

Energetika vazirligi Loyiha o‘z vaqtida amalga oshirilishiga mas’ul ijrochi organ hisoblanadi;

“Hududgazta’minot” AJ Loyiha doirasida jalb etilayotgan kreditlar bo‘yicha qarz oluvchi hisoblanadi, u asosiy qarzni to‘laydi, tegishli mablag‘lar hisobidan foizlar, komissiyalar va kreditlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha boshqa xarajatlarni qoplaydi hamda jalb etiladigan qarz va kredit mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish uchun mas’ul hisoblanadi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyat hokimliklari “Hududgazta’minot” AJ bilan hamkorlikda mazkur qarorga 3 va 4-ilovalarga muvofiq elektron gaz hisoblagichlarining to‘liq o‘rnatilishini ta’minlaydi;

ushbu qarorga 5-ilovada belgilangan muddatlardan so‘ng ulgurji iste’molchilar bilan shartnomaviy munosabatlarga ma’lumotlarning Tizimga faqat onlayn tarzda uzatilishi ta’minlangan holda yo‘l qo‘yiladi.

16. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi “Hududgazta’minot” AJ bilan birgalikda:

ikki hafta muddatda Tizim o‘rnatiladigan hududlarda aloqa va Internet qamrovi bilan ta’minlanganlik hamda aloqa sifati texnik talablarga mosligi darajasini o‘rgansin;

bir oy muddatda barcha hududlarni aloqa va Internet qamrovi bilan 2020-yil yakuniga qadar ta’minlash hamda aloqa sifatini texnik talablarga moslashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin va uning amalga oshirilishini ta’minlab borsin.

17. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va Hisob palatasi raisining birinchi o‘rinbosari B.T. Turabov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2020-yil 24-sentabr,
PQ-4840-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-sentabrdagi PQ-4840-son qaroriga
1-ILOVA

## “Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish” loyihasi doirasida elektron gaz hisoblagichlarini yetkazib berish

GRAFIGI

| **T/r** | **Mahsulotlar nomi** | **Jami o‘rnati-ladigan EGH va uskunalar soni** | **2020-yil 1-sentabr holatiga yetkazib berilgan EGH va uskunalar soni** | **EGH va uskuna-larni yetkazib berish rejasi** | **shu jumladan:** | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | **2020-yil** | | | | **2021-yil** | | | | | | |
| | | | | | **sentyabr** | **oktyabr** | **noyabr** | **dekabr** | **yanvar** | **fevral** | **mart** | **aprel** | **may** | **iyun** | **iyul** |
| **1** | **EGHlar jami** | **3 546 148** | **343 620** | **3 202 528** | **91 772** | **91 771** | **359 388** | **350 643** | **362 047** | **359 189** | **358 178** | **358 178** | **359 178** | **359 193** | **152 991** |
| | *shu jumladan:* | | | | | | | | | | | | | | |
| 1.1. | G-1,6 rusumli | 449 891 | 11 771 | 438 120 | 496 | 497 | 35 367 | 53 035 | 62 562 | 49 569 | 68 695 | 52 488 | 55 291 | 47 878 | 12 242 |
| 1.2. | G-2,5 rusumli | 339 936 | 10 675 | 329 261 | 13 822 | 13 504 | 44 188 | 43 460 | 27 294 | 43 910 | 31 220 | 34 997 | 36 919 | 27 537 | 12 410 |
| 1.3. | G-4 rusumli | 941 873 | 149 092 | 792 781 | 38 320 | 25 102 | 124 114 | 82 914 | 82 812 | 77 776 | 80 839 | 80 564 | 80 925 | 92 285 | 27 130 |
| 1.4. | G-6 rusumli | 1 683 687 | 168 998 | 1 514 689 | 36 651 | 50 192 | 140 253 | 158 706 | 176 527 | 170 448 | 159 824 | 179 095 | 173 011 | 176 324 | 93 658 |
| 1.5. | G-10 rusumli | 114 050 | 2 089 | 111 961 | 2 147 | 2 139 | 14 274 | 9 870 | 12 466 | 14 487 | 16 302 | 8 696 | 11 108 | 12 996 | 7 476 |
| 1.6. | G-16 rusumli | 16 711 | 995 | 15 716 | 336 | 337 | 1 192 | 2 658 | 386 | 2 999 | 1 298 | 2 338 | 1 924 | 2 173 | 75 |
| **2** | **Bosim rostlagichlari** | **1 292 969** | **66 246** | **1 226 723** | **47 554** | **42 967** | **117 528** | **145 112** | **128 726** | **118 737** | **149 530** | **138 070** | **137 969** | **132 858** | **67 672** |
| | *shu jumladan:* | | | | | | | | | | | | | | |
| 2.1. | TRG-MK 10 rusumli | 1 162 208 | 66 246 | 1 095 962 | 42 663 | 39 891 | 105 793 | 122 186 | 115 910 | 106 707 | 127 022 | 124 944 | 126 417 | 118 814 | 65 615 |
| 2.2. | TRG-MK 25 rusumli | 130 761 | - | 130 761 | 4 891 | 3 076 | 11 735 | 22 926 | 12 816 | 12 030 | 22 508 | 13 126 | 11 552 | 14 044 | 2 057 |
| **3** | **Himoya qutisi** | **2 455 176** | **62 376** | **2 392 800** | **75 220** | **83 341** | **248 382** | **262 764** | **222 592** | **245 903** | **276 299** | **302 413** | **256 225** | **276 352** | **143 309** |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-sentabrdagi PQ-4840-son qaroriga
2-ILOVA

**“Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish” loyihasi doirasida elektron gaz hisoblagichlarini o‘rnatish**

GRAFIGI

| T/r | Vazifalar | Loyiha bo‘yicha rejalash-tirilgan | 2020-yil 1-sentabr holatiga amalda bajarilgan | 2020-yil sentyabr-dekabr rejasi | shu jumladan: | | | | 2021-yil yanvar-iyul rejasi |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | sentyabr | oktyabr | noyabr | dekabr | |
| | **Jami respublika bo‘yicha** | | | | | | | | |
| | **Elektron gaz hisoblagichini o‘rnatish** | **3 546 148** | **343 620** | **893 574** | **91 772** | **91 771** | **359 388** | **350 643** | **2 308 954** |
| | **Gaz bosimi rostlagichini o‘rnatish** | **1 292 969** | **66 246** | **353 161** | **47 554** | **42 967** | **117 528** | **145 112** | **873 562** |
| | **Himoya qutisini o‘rnatish** | **2 455 176** | **62 376** | **669 707** | **75 220** | **83 341** | **248 382** | **262 764** | **1 723 093** |
| | **Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish** | **5 235** | **528** | **55** | **16** | **6** | **25** | **8** | **4 652** |
| | **Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish** | **1 294** | **328** | **148** | **23** | **8** | **65** | **52** | **818** |
| | **O‘rnatuvchi guruhlarning jami soni** | **-** | **1 288** | **-** | **442** | **441** | **1 738** | **1 704** | **1 675** |
| **1.** | **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichini o‘rnatish | 241 592 | 13 213 | 51 848 | - | - | 26 650 | 25 198 | 176 531 |
| | Gaz bosimi rostlagichini o‘rnatish | 103 492 | 2 945 | 32 941 | - | - | 11 285 | 21 656 | 67 606 |
| | Himoya qutisini o‘rnatish | 206 885 | 1 097 | 52 786 | - | - | 21 230 | 31 556 | 153 002 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 8 | 8 | - | - | - | - | - | - |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 237 | 109 | 31 | - | - | 21 | 10 | 97 |
| | O‘rnatuvchi guruhlarning jami soni | - | 48 | - | - | - | 128 | 121 | 152 |
| **2.** | **Andijon viloyati** | | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichini o‘rnatish | 221 013 | 61 996 | 72 547 | 12 750 | 14 476 | 22 720 | 22 601 | 86 470 |
| | Gaz bosimi rostlagichini o‘rnatish | 88 788 | 8 065 | 38 371 | 6 375 | 7 314 | 13 320 | 11 362 | 42 352 |
| | Himoya qutisini o‘rnatish | 177 404 | 5 265 | 78 303 | 4 911 | 14 476 | 29 282 | 29 634 | 93 836 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 27 | - | 11 | - | - | 7 | 4 | 16 |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 54 | - | 25 | - | - | 17 | 8 | 29 |
| | O‘rnatuvchi guruhlarning jami soni | - | 95 | - | 62 | 69 | 109 | 109 | 64 |
| **3.** | **Buxoro viloyati** | | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichini o‘rnatish | 262 033 | 23 953 | 66 276 | - | - | 33 138 | 33 138 | 171 804 |
| | Gaz bosimi rostlagichini o‘rnatish | 120 223 | 3 265 | 34 523 | - | - | 10 444 | 24 079 | 82 435 |
| | Himoya qutisini o‘rnatish | 220 589 | 1 097 | 37 918 | - | - | 18 223 | 19 695 | 181 574 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o'rnatish | 4 916 | 436 | 6 | - | - | 3 | 3 | 4 474 |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o'rnatish | 101 | 79 | 6 | - | - | 3 | 3 | 16 |
| | O'rnatuvchi guruhlarning jami soni | - | 57 | - | - | - | 149 | 149 | 147 |
| **4.** | **Jizz�x viloyati** | | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichini o'rnatish | 143 825 | 14 365 | 40 982 | 10 378 | 10 190 | 10 397 | 10 017 | 88 478 |
| | Gaz bosimi rostlagichini o'rnatish | 61 147 | 1 793 | 22 020 | 6 192 | 5 136 | 4 744 | 5 948 | 37 334 |
| | Himoya qutisini o'rnatish | 114 721 | 4 337 | 33 253 | 8 786 | 8 627 | 9 025 | 6 815 | 77 131 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o'rnatish | 21 | 2 | 2 | - | - | 2 | - | 17 |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o'rnatish | 24 | 8 | 2 | - | - | 2 | - | 14 |
| | O'rnatuvchi guruhlarning jami soni | - | 34 | - | 50 | 49 | 50 | 48 | 74 |
| **5.** | **Qashqadaryo viloyati** | | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichini o'rnatish | 150 809 | 17 473 | 49 106 | - | - | 24 456 | 24 650 | 84 230 |
| | Gaz bosimi rostlagichini o'rnatish | 64 769 | 4 225 | 21 116 | - | - | 10 516 | 10 600 | 39 428 |
| | Himoya qutisini o'rnatish | 114 646 | 3 833 | 36 748 | - | - | 18 301 | 18 447 | 74 065 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o'rnatish | 36 | 11 | 3 | - | - | 3 | - | 22 |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o'rnatish | 441 | 9 | 2 | - | - | 2 | - | 430 |
| | O'rnatuvchi guruhlarning jami soni | - | 58 | - | - | - | 118 | 119 | 64 |
| **6.** | **Navoiy viloyati** | | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichini o'rnatish | 132 797 | 13 273 | 24 463 | - | - | 12 231 | 12 232 | 95 061 |
| | Gaz bosimi rostlagichini o'rnatish | 42 734 | 1 345 | 10 934 | - | - | 4 252 | 6 682 | 30 455 |
| | Himoya qutisini o'rnatish | 83 187 | 665 | 22 918 | - | - | 12 221 | 10 697 | 59 604 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o'rnatish | 18 | 13 | - | - | - | - | - | 5 |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o'rnatish | 61 | 61 | - | - | - | - | - | - |
| | O'rnatuvchi guruhlarning jami soni | - | 65 | - | - | - | 60 | 59 | 89 |
| **7.** | **Namangan viloyati** | | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichini o'rna�ish | 164 194 | 15 007 | 55 922 | - | - | 28 774 | 27 148 | 93 265 |
| | Gaz bosimi rostlagichini o'rnatish | 65 973 | 12 040 | 10 368 | - | - | 4 559 | 5 809 | 43 565 |
| | Himoya qutisini o'rnatish | 130 417 | 3 393 | 40 405 | - | - | 19 120 | 21 285 | 86 619 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o'rnatish | 15 | 15 | - | - | - | - | - | - |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o'rnatish | 30 | 29 | 1 | - | - | 1 | - | - |
| | O'rnatuvchi guruhlarning jami soni | - | 128 | - | - | - | 138 | 150 | 87 |
| **8.** | **Samarqand viloyati** | | | | | | | | |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Elektron gaz hisoblagichini o‘rnatish | 281 750 | 9 813 | 79 450 | 20 116 | 18 436 | 21 946 | 18 952 | 192 487 |
| | Gaz bosimi rostlagichini o‘rnatish | 110 188 | 1 985 | 24 252 | 6 142 | 5 628 | 6 698 | 5 784 | 83 951 |
| | Himoya qutisini o‘rnatish | 220 299 | 89 | 48 493 | 12 278 | 11 252 | 13 395 | 11 568 | 171 717 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 84 | - | 15 | 12 | 3 | - | - | 69 |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 40 | - | 8 | 6 | 2 | - | - | 32 |
| | O‘rnatuvchi guruhlarning jami soni | - | 140 | - | 97 | 89 | 106 | 91 | 160 |
| **9.** | **Surxondaryo viloyati** | | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichini o‘rnatish | 107 833 | 14 617 | 29 227 | - | - | 14 820 | 14 407 | 63 989 |
| | Gaz bosimi rostlagichini o‘rnatish | 43 193 | 3 905 | 8 031 | - | - | 4 265 | 3 766 | 31 257 |
| | Himoya qutisini o‘rnatish | 85 804 | 3 401 | 16 060 | - | - | 7 635 | 8 425 | 66 343 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 1 | - | 1 | - | - | 1 | - | - |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 26 | 2 | 2 | - | - | - | 2 | 22 |
| | O‘rnatuvchi guruhlarning jami soni | - | 42 | - | - | - | 71 | 69 | 89 |
| **10.** | **Sirdaryo viloyati** | | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichini o‘rnatish | 105 943 | 13 409 | 24 175 | - | - | 12 087 | 12 088 | 68 359 |
| | Gaz bosimi rostlagichini o‘rnatish | 40 584 | 3 777 | 7 091 | - | - | 5 980 | 1 111 | 29 716 |
| | Himoya qutisini o‘rnatish | 80 711 | 6 129 | 13 999 | - | - | 7 776 | 6 223 | 60 583 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 8 | - | - | - | - | - | - | 8 |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 10 | - | - | - | - | - | - | 10 |
| | O‘rnatuvchi guruhlarning jami soni | - | 40 | - | - | - | 84 | 85 | 60 |
| **11.** | **Toshkent viloyati** | | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichini o‘rnatish | 593 513 | 89 950 | 191 077 | 48 528 | 48 669 | 46 970 | 46 910 | 312 486 |
| | Gaz bosimi rostlagichini o‘rnatish | 234 540 | 15 652 | 91 330 | 28 845 | 24 889 | 20 436 | 17 160 | 127 558 |
| | Himoya qutisini o‘rnatish | 448 621 | 24 872 | 178 851 | 49 245 | 48 986 | 44 344 | 36 276 | 244 898 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 53 | 26 | 12 | 4 | 3 | 4 | 1 | 15 |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 75 | 10 | 32 | 17 | 6 | 7 | 2 | 33 |
| | O‘rnatuvchi guruhlarning jami soni | - | 424 | - | 233 | 234 | 226 | 226 | - |
| **12.** | **Farg‘ona viloyati** | | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichini o‘rnatish | 299 079 | 21 281 | 60 349 | - | - | 31 024 | 29 325 | 217 449 |
| | Gaz bosimi rostlagichini o‘rnatish | 100 490 | 5 121 | 21 745 | - | - | 13 184 | 8 561 | 73 624 |
| | Himoya qutisini o‘rnatish | 197 348 | 2 249 | 45 132 | - | - | 25 167 | 19 965 | 149 967 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 46 | 17 | 5 | - | - | 5 | - | 24 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 50 | 21 | 4 | - | - | 4 | - | 25 |
| | O‘rnatuvchi guruhlarning jami soni | - | 62 | - | - | - | 148 | 141 | 197 |
| **13.** | **Xorazm viloyati** | | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichini o‘rnatish | 224 968 | 14 173 | 48 152 | - | - | 24 175 | 23 977 | 162 643 |
| | Gaz bosimi rostlagichini o‘rnatish | 99 236 | 1 345 | 11 622 | - | - | - | 11 622 | 86 269 |
| | Himoya qutisini o‘rnatish | 196 257 | 633 | 35 988 | - | - | 12 010 | 23 978 | 159 636 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 2 | - | - | - | - | - | - | 2 |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 56 | - | 15 | - | - | 8 | 7 | 41 |
| | O‘rnatuvchi guruhlarning jami soni | - | 51 | - | - | - | 112 | 184 | 97 |
| **14.** | **Toshkent shahri** | | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichini o‘rnatish | 616 799 | 21 097 | 100 000 | - | - | 50 000 | 50 000 | 495 702 |
| | Gaz bosimi rostlagichini o‘rnatish | 117 612 | 783 | 18 817 | - | - | 7 845 | 10 972 | 98 012 |
| | Himoya qutisini o‘rnatish | 178 287 | 5 316 | 28 853 | - | - | 10 653 | 18 200 | 144 118 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | - | - | - | - | - | - | - | - |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 89 | - | 20 | - | - | - | 20 | 69 |
| | O‘rnatuvchi guruhlarning jami soni | - | 44 | - | - | - | 240 | 153 | 396 |

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-sentabrdagi PQ-4840-son qaroriga
3-ILOVA

**Tabiiy gaz iste’moli va qarzdorlik darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy qilish**

**GRAFIGI**

| **T/r** | **Hududlar nomi** | **Jami o‘rnatila-digan EGH va uskunalar soni** | **shu jumladan:** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | **2020-yil 1sentyabr holatiga amalda bajarilgan** | **2020-yil** | | | | **2021-yil** |
| | | | | **sentyabr** | **oktyabr** | **noyabr** | **dekabr** | **yanvar** |
| | **Toshkent viloyati** | | | | | | | |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | **Zangiota tumani** | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichlar soni | 46 239 | 28 066 | 18 173 | - | - | - | - |
| | Himoya qutilar soni | 14 895 | 5 239 | 9 656 | - | - | - | - |
| | Gaz bosimi rostlagichlari soni | 25 552 | 8 575 | 16 977 | - | - | - | - |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 30 | 1 | 29 | - | - | - | - |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnati� | 8 | 2 | 6 | - | - | - | - |
| | O‘rnatuvchi guruhlar jami soni | - | 135 | 87 | - | - | - | - |
| 2 | **Qibray tumani** | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichlar soni | 49 631 | 35 846 | 13 785 | - | - | - | - |
| | Himoya qutilar soni | 16 374 | 5 760 | 10 614 | - | - | - | - |
| | Gaz bosimi rostlagichlari soni | 24 910 | 8 359 | 16 551 | - | - | - | - |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 6 | 6 | - | - | - | - | - |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 2 | 1 | 1 | - | - | - | - |
| | O‘rnatuvchi guruhlar jami soni | - | 172 | 66 | - | - | - | - |
| 3 | **Toshkent tumani** | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichlar soni | 39 893 | 23 323 | 16 570 | - | - | - | - |
| | Himoya qutilar soni | 13 228 | 4 653 | 8 575 | - | - | - | - |
| | Gaz bosimi rostlagichlari soni | 23 655 | 7 938 | 15 717 | - | - | - | - |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 2 | - | 2 | - | - | - | - |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 6 | 2 | 6 | - | - | - | - |
| | O‘rnatuvchi guruhlar jami soni | - | 112 | 80 | - | - | - | - |
| 4 | **Chinoz tuman** | | | | | | | |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Elektron gaz hisoblagichlar soni | 23 703 | - | - | 11 055 | 1 964 | 10 684 | - |
| | Himoya qutilar soni | 11 916 | - | - | 5 653 | 855 | 5 408 | - |
| | Gaz bosimi rostlagichlari soni | 22 852 | - | - | 11 127 | 1 854 | 9 871 | - |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 4 | 4 | - | - | - | - | - |
| | O‘rnatuvchi guruhlar jami soni | - | - | - | 53 | 9 | 51 | - |
| 5 | **Yangiyo‘l tumani** | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichlar soni | 55 641 | - | - | 22 070 | 11 055 | 19 676 | 2 840 |
| | Himoya qutilar soni | 22 088 | - | - | 11 287 | 4 809 | 4 277 | 1 715 |
| | Gaz bosimi rostlagichlari soni | 44 153 | - | - | 22 214 | 10 437 | 10 422 | 1 080 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 7 | 2 | - | 3 | 2 | - | - |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 8 | 5 | - | 1 | 2 | - | - |
| | O‘rnatuvchi guruhlar jami soni | - | - | - | 106 | 53 | - | - |
| 6 | **O‘rta chirchiq tumani** | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichlar soni | 39 571 | - | - | 1 964 | 18 408 | 14 586 | 4 613 |
| | Himoya qutilar soni | 18 316 | - | - | 1 004 | 8 009 | 6 303 | 3 000 |
| | Gaz bosimi rostlagichlari soni | 36 632 | - | - | 1 977 | 17 379 | 14 586 | 2 690 |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 15 | 9 | - | - | 6 | - | - |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 4 | - | - | - | 4 | - | - |
| | O‘rnatuvchi guruhlar jami soni | - | - | - | 9 | 89 | 70 | 22 |
| 7 | **Yuqori chirchiq tumani** | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichlar soni | 31 087 | - | - | 13 580 | 15 543 | 1 964 | - |
| | Himoya qutilar soni | 14 880 | - | - | 6 945 | 6 763 | 1 172 | - |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Gaz bosimi rostlagichlari soni | 29 739 | - | - | 13 668 | 14 674 | 1 397 | - |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 4 | - | - | 2 | 2 | - | - |
| | O‘rnatuvchi guruhlar jami soni | - | - | - | 65 | 75 | 9 | - |
| **Andijon viloyati** | | | | | | | | |
| 8 | **Andijon shahar** | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichlar soni | 64 419 | 26 947 | 12 750 | 14 476 | 10 246 | - | - |
| | Himoya qutilar soni | 19 076 | - | 6 375 | 7 314 | 5 387 | - | - |
| | Gaz bosimi rostlagichlari soni | 38 076 | 5 265 | 4 911 | 14 476 | 13 424 | - | - |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 4 | 2 | - | 1 | 1 | - | - |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 8 | 4 | - | 2 | 2 | - | - |
| | O‘rnatuvchi guruhlar jami soni | - | 130 | 61 | 70 | 49 | - | - |
| **Buxoro viloyati** | | | | | | | | |
| 9 | **Buxoro shahar** | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichlar soni | 68 967 | 11 363 | - | - | 30 717 | 26 887 | - |
| | Himoya qutilar soni | 31 326 | 3 054 | - | - | 10 444 | 17 828 | - |
| | Gaz bosimi rostlagichlari soni | 38 206 | 288 | - | - | 18 223 | 19 695 | - |
| | Tuman (shahar) chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 9 | 3 | - | - | 3 | 3 | - |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 9 | 3 | - | - | 3 | 3 | - |
| | O‘rnatuvchi guruhlar jami soni | - | 55 | - | - | 148 | 129 | - |
| **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** | | | | | | | | |
| 10 | **Nukus shahar** | | | | | | | |
| | Elektron gaz hisoblagichlar soni | 66 795 | 3 859 | - | - | 26 650 | 25 198 | 11 088 |
| | Himoya qutilar soni | 33 560 | 619 | - | - | 11 285 | 21 656 | - |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Gaz bosimi rostlagichlari soni | 53 049 | 263 | - | - | 21 230 | 31 556 | - |
| | Yirik hududlar chegarasiga hisoblagich o‘rnatish | 38 | 7 | - | - | 21 | 10 | - |
